



O'ZBEK SHEVALARINING O'ZBEK OLIMLARI TOMONIDAN TADQIQI

Raimnazarova Nasiba

Termiz davlat pedagogika instituti

F.f.f.d (PhD) dosent

Qurbonova Zulfizar

Termiz davlat pedagogika instituti

Tillar fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Har bir fanning o'z tarixi bo'ladi, shu jumladan o'zbek dialektologiyasining ham o'z tarixi bor. O'zbek shevalari dastlab turkiy shevalarni o'rganish asosida paydo bo'lgan, ammo hozirgi kunga kelib rivojlangan fanlardan biriga aylangan. Ayniqsa, o'tgan asrning 50-80-yillarida o'zbek shevalarini o'rganishga jiddiy e'tibor qaratildi. Eng muhimi, qadimda o'zbek shevalarini o'rganish xorijiy olimlar tomonidan boshlangan bo'lsada, bugungi kunga kelib ko'pgina o'zbek olimlari ham jiddiy ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Jumladan, V.V.Reshetov va Sh. Shoabdurahmonovlar 1962-tilda o'zbek dialektologiyasi fanidan ilk darslikni yaratganlari ham bugungi kunda ushbu fanning qay darajada rivojlanayotganligining yorqin dalilidir.

Kalit so'zlar: sheva, lahja, dialekt, dialektologiya, darslik, o'zbek olimlari, o'zbek shevashunosligi.

Kirish

O'zbek shevalarining o'rganilish jarayoni ham juda uzoq davrlarga borib ptaqaladi. Bu bo'yicha dastlabki tadqiqotlar "Devonu lug'otit turk" asari ekanligi barchamizga ma'lum. Bu asar o'zbek shevalarini o'rganish jarayonidagi ilk tadqiqotlardan hisoblanadi. Chunki bu asarda qo'llanilgan ayrim sheva xususiyatlari hozirgi shevalarimizda ham saqlanib qolgan. O'sha davrdan to hozirgi kunga qadar o'zbek shevalari juda ko'p olimlar tomonidan tadqiq qilingan va har bir olimning o'z tutgan yo'li, bilimi, tadqiqotlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo XX asrning boshlarida ham o'zbek shevalari bo'yicha tadqiqotlar, izlanishlar olib borilgan bo'lsada, bu soha fan sifatida ajralib chiqamydi. Chunki bu davrda o'zbek tilshunosligining o'zi ham fan bo'lib shakllanmagan edi. Keyinchalik bu ham fan sifatida shakllangan. Chunki juda ko'p o'zbek olimlari tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, Nurmonovning ta'kidlashicha, o'zbek tilshunosligi 40-yillarda fan sifatida shakllangan. Shu hisobda aytish kerakki, o'zbek



shevashunosligi 50-yillarda rivojlangan. Ammo shunday bo'lsada, o'zbek shevalarining o'rganilishini 20-yillardan boshlash maqsadga muvofiqdir. Chunki shu yillarda ham o'zbek shevalari bo'yicha juda ko'p izlanishlar olib borilgan. Bu davrda turli komissiyalar tomonidan tadqiqotlar olib borilib, o'zbek shevalarining fonetik, leksik, morfologik xususiyatlari yuzasidan dastlabki tadqiqotlar e'lon qilingan. Bu esa shu yillarda ham o'zbek shevalari ustida olib borilgan tadqiqotlarning samarasini ko'rsatadi. Olib borilgan bu tadqiqotlarda o'zbek tili va adabiyoti olimlari, professorlari, shu jumladan G'ozzi Olim Yunusov, K.D.Yudaxin, P.D.Polivanovlarning hissasi katta. Shunday bo'lsada o'zbek shevalarini o'rganishda 50-70-yillar eng cho'qqiga chiqqan davr hisoblanadi. Bu davrda ilmiy attestatsiyali olimlar guruhi tashkil qilinadi. Xususan, V.V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, S. Ibrohimov, M. Mirzayev, F. Abdullayev, X. Doniyorov, Y. G'ulomov, O. Madrahimov, N. Nazarov, A. Shermatov kabi olimlar birgalikda ko'plab tadqiqotlar olib borishgan. Keyinchalik bunday olimlar safi ortib borgan.

Eng asosiysi, o'zbek dialektologiyasi fan sifatida shakllandi va oliy o'quv yurtlarida darslik asosida fan sifatida o'tila boshlandi. Bunda eng katta manba 1962-yilda yozilgan "O'zbek dialektologiyasi" darsligidir. Bu asarning mualliflari esa V.V. Reshetov va Sh. Sh. Shoabdurahmonovlardir. Bu kitob faqatgina darslik bo'lib qolmasdan, o'zbek shevalarini o'rganishning muhim dasturilamalidir. Bu darslik o'zbek dialektologiya haqidagi ilk kitob bo'lganligi sababli mavqeyi juda yuqori bo'ladi. Hatto do'konlardan topilmay qolavergani esa uning qay darajada shuhrati baland bo'lganini ko'rsatadi.

Bu asar juda katta ichki tuzilmaga ega asardir. Bu asarda dialektologiyaning asosiy tushunchalari, dialekt tushunchasi, dialektologiyaning vazifalari belgilab berilgan, o'zbek shevalarini o'rganishning metodikasi, transkripsion tizimi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari darslikda shevalarning tarixi, ilk bor kimlar tomonidan o'rganilganligi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Darslikning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri esa unda o'zbek shevalarining fonetikasi, morfologiyasi, umuman, grammatikasi haqida ham ma'lumotlar mavjudligidir. Bu darslikda yozilganlar shunchaki ma'lumot emas, balki ilmiy asosda o'rganilgan tadqiqotlar natijasidir.

Turkiy dialektologiya ilk o'rganilayotgan paytlarda rus olimlari, jumladan A.M. Samoylovich, S.E. Malov, D.E. Polivanov singari olimlar turkman, qirg'iz, o'zbek va qoraqalpoq shevalari ustida ilmiy ishlar bilan shug'ullanishgan. Shu qatorda o'zbek tilshunos olimlarimizdan M. Buranov, Y.M. Ibragimov, A. Ishayev, E.Y. Urazov, Z. Ibragimova, U. Ibragimovlar Qoraqalpog'istondagi o'zbek shevalarini tadqiq qilganligini ham aytib o'tish joiz. Bular orasida Ibragimov Yuldash Matkarimovichni o'zbek dialektologiyasida yirik ilmiy



maktab yaratgan olim sifatida baholash o‘rinlidir. Professor Tolib Enazarov ham o‘zining ilmiy maqolasida 9 ta yirik dialektologik maktab bor ekanligini ta’kidlab, bular qatorida Nukus ilmiy maktabini ham alohida mavqega ega ekanligini yozadi. Atoqli dialektolog olim Yuldash Ibragimov o‘zbek dialektologiyasi rivojiga juda katta hissa qo‘shayotgan professorlardan hisoblanadi. Sababi ustozning ilmiy ishlarining deyarli barchasi shu sohaga bag‘ishlangan. Olimning 400 dan ortiq ilmiy maqolalari ham dialektologiya fani haqida ekanligi buning isbotidir.

Mashhur shevashunos olimlarimizdan yana biri bu G‘ozi Olim Yunusovdir. U o‘zining ilmiy maqolalarida o‘zbek urug‘larining shevalari haqida ma’lumotlar beradi. Shuningdek, olimning "O‘zbek urug‘lari(qabilalari) va ularning shevalariga tegishlik ma’lumot to‘plovchilarga qisqacha qo‘llanma" nomli maqolasida bu mavzuga alohida e’tibor qaratgan. Ma’lumot o‘rnida aytish kerakki, olim bu sarlavha ostida 2 ta maqola yozgan bo‘lib, birinchi maqolada o‘rganilayotgan shevaning etnik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Ikkinchi maqola esa to‘lig‘icha shevalarning umumiy xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. G‘ozi Olim Yunusovning "Maorif va o‘qitg‘uchi" jurnalida chop etilgan "O‘zbek tilining tovushlari" maqolasida o‘zbek shevalarini tasniflaydi. Ushbu maqolasida o‘zbek tilida uchta sheva borligini ta’kidlaydi: 1) qipchoq; 2) uyg‘ur-chig‘atoy; 3) o‘g‘uz. Muallif o‘z maqolasida bu shevalarni berar ekan, "O‘zbek shevalari va ularning xususiyatlari" asarida bu mavzuga alohida to‘xtalib o‘tganini aytadi. Olimning bu asarlarida berilgan ma’lumotlar hanuzgacha dialektologiya fani rivoji uchun ulkan dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek shevalari o‘zbek tilining boyligi va rang-barangligini aks ettiruvchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. Ularning o‘rganilishi nafaqat tilshunoslik, balki xalqning tarixiy, etnografik va madaniy taraqqiyotini anglashda ham katta ahamiyatga ega. O‘zbek olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shevalarning tasnifi, hududiy tarqalishi hamda fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari chuqur o‘rganilgan. Shuningdek, shevalarni o‘rganishda turli ilmiy yondashuvlar — hududiy, etnogenetik va lingvistik tamoyillar qo‘llanilgani ularning murakkab va ko‘p qatlamli tizim ekanini ko‘rsatadi. Bugungi kunda o‘zbek shevalarini yanada chuqurroq tadqiq etish, ularni saqlash va kelajak avlodga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, globallashuv sharoitida shevalarning yo‘qolib ketish xavfi mavjudligi ularni ilmiy asosda o‘rganish zaruratini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR



1. Ashirboyev S. — O‘zbek shevalarini o‘rganishning to‘ng‘ich kaliti. — Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022.
2. Ergashev I. — O‘zbek dialektologiyasi va uning dolzarb muammolari. — Toshkent: Fan, 2021.
3. Ibragimov Y.M. — O‘zbek shevalarining hududiy xususiyatlari. — Nukus: Qoraqalpoq nashriyoti, 2020.
4. Jinnazarova S., Kaypnazarova M. — Nukus dialektologiya maktabining asoschisi. — Toshkent: 2021.
6. Karimov B. — O‘zbek tilshunosligida dialektologik tadqiqotlar. — Toshkent: Universitet, 2023.
7. Mamatov A. — O‘zbek tilining dialektlari va ularning taraqqiyoti. — Samarqand: SamDU nashri, 2022.
8. Nurmonov A. — O‘zbek tilshunosligi tarixi va rivojlanish bosqichlari. — Toshkent: 2021.
9. Rahmatullayev Sh. — Hozirgi o‘zbek adabiy tili va shevalar. — Toshkent: 2020.
10. Tursunov U. — O‘zbek shevashunosligining nazariy asoslari. — Toshkent: 2023.
11. Yangibayeva N. — G‘ozi Olim ilmiy talqinida o‘zbek shevalari tasnifi. — Toshkent: 2021.